



TIJORAT BANKLARIDA MONETAR SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Qobiljonov Dostonbek

Andijon davlat texnika instituti

*Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv
fakulteti “Bank ishi va audit” yo’nalishi*

4-kurs K-116-21 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: dots.M.A.X.Eshonov

Annotatsiya: Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va iqtisodiyotdagi faol ishtirokini ta’minlashda monetar siyosatning samaradorligi muhim o’rin tutadi. Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati orqali iqtisodiy o’sish sur’atlarini qo’llab-quvvatlash, inflyatsiyani nazorat qilish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga erishilmoqda. Biroq, tijorat banklarining ushbu siyosatga moslashuvi va undan samarali foydalanishi ko’p jihatdan banklarning o’z kredit, depozit va likvidlik siyosatini to’g’ri olib borishiga bog’liq. Mazkur maqolada tijorat banklarida monetar siyosat vositalarining qo’llanilishi, ularning samaradorligi va banklar faoliyatiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, banklar faoliyatida monetar siyosat samaradorligini oshirish yo’nalishlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so’zlar: tijorat banklari, monetar siyosat, pul-kredit siyosati, inflyatsiya, foiz siyosati, bank resurslari, kredit siyosati, depozit siyosati, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy o’sish, samaradorlik, strategik rivojlanish.

Аннотация: Повышение эффективности монетарной политики имеет важное значение для обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков и их активного участия в экономике. Денежно-кредитная политика, проводимая Центральным банком, направлена на поддержку темпов экономического роста, контроль над инфляцией и обеспечение финансовой стабильности. Однако успешная адаптация коммерческих банков к данной



политике и эффективное её использование во многом зависят от правильного ведения собственной кредитной, депозитной и ликвидной политики. В статье анализируется применение инструментов монетарной политики в коммерческих банках, их эффективность и влияние на банковскую деятельность. Также разрабатываются практические рекомендации по повышению эффективности монетарной политики в деятельности банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, монетарная политика, денежно-кредитная политика, инфляция, процентная политика, банковские ресурсы, кредитная политика, депозитная политика, финансовая устойчивость, экономический рост, эффективность, стратегическое развитие.

Abstract: Improving the effectiveness of monetary policy is crucial for ensuring the financial stability of commercial banks and their active participation in the economy. The monetary policy implemented by the Central Bank aims to support economic growth, control inflation, and ensure financial stability. However, the successful adaptation of commercial banks to this policy and its effective use largely depend on the proper management of their credit, deposit, and liquidity policies. This article analyzes the application of monetary policy instruments in commercial banks, their effectiveness, and their impact on banking activities. Practical recommendations are also developed to improve the effectiveness of monetary policy in banking operations.

Keywords: commercial banks, monetary policy, monetary-credit policy, inflation, interest policy, bank resources, credit policy, deposit policy, financial stability, economic growth, effectiveness, strategic development.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar siyosat muhim tartibga solish vositalaridan biri hisoblanadi. Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan monetar siyosat orqali iqtisodiy muvozanatga erishish, inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish, moliyaviy bozorlar barqarorligini ta'minlash maqsad qilinadi. Bunda tijorat banklari Markaziy bank siyosatiga moslashib, o'z kredit, depozit va foiz siyosatini samarali boshqarishi zarur



bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda inflyatsiyani pasaytirish, pul massasini tartibga solish, banklararo bozorlarni rivojlantirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi, majburiy zaxira normalari va ochiq bozor operatsiyalari orqali monetar siyosatni olib bormoqda. Bu esa tijorat banklari uchun yangi strategik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Biroq, amaliyatda tijorat banklarining monetar siyosat talablariga to'liq moslashgani yoki undan samarali foydalana olayotgani to'liq ta'minlanmagan. Kredit resurslarining yuqori foiz stavkalari, depozit mahsulotlarining cheklanganligi, likvidlik boshqaruvi muammolari bank faoliyatida ayrim cheklovlarini yuzaga keltirmoqda. Shu bois, tijorat banklarida monetar siyosat vositalarini to'g'ri qo'llash, foiz siyosatini optimallashtirish, kredit va depozit mahsulotlarini rivojlantirish hamda moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'nalishlarini aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada tijorat banklarida monetar siyosat samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy yo'nalishlari tahlil qilinadi hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Monetar siyosatning bank faoliyatiga ta'siri va uning samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatadiki, Markaziy bank va tijorat banklari o'rtaqidagi uzviy aloqalar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Iqtisod fanlari doktori Sh.A. Nurmuxamedov o'zining ilmiy ishlari orqali O'zbekiston sharoitida tijorat banklarining monetar siyosatga moslashuvchanligini kuchaytirish zarurligini asoslab bergan. Unga ko'ra, banklar foiz siyosatini Markaziy bank stavkalari bilan muvofiqlashtirishi, kredit va depozit siyosatini moslashtirishi lozim. Iqtisod fanlari nomzodi D.S. Ergashev esa tijorat banklarining monetar siyosat vositalaridan samarali foydalanish orqali kredit bozorini jonlantirish, depozitlarni ko'paytirish va mijozlar ishonchini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. U, ayniqsa, ochiq bozor operatsiyalarining bank likvidligini boshqarishdagi ahamiyatini ta'kidlagan.

Xorijiy olimlar, jumladan, Mishkin va Heffernan asarlarida Markaziy bank va tijorat banklari o'rtaqidagi o'zaro munosabatlar, foiz siyosati va pul bozorlarining



o'zaro ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Ularning fikricha, moliyaviy vositachilik samaradorligi banklarning monetar siyosatga moslashuvchanligiga bevosita bog'liq.

Ushbu maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Ilmiy tahlil va umumlashtirish usuli – nazariy va amaliy manbalarni tahlil qilish;
- Taqqoslash usuli – O'zbekiston va boshqa mamlakatlar tajribasini solishtirish;
- Statistik tahlil – tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- Ekspert baholash usuli – bank sohasi mutaxassislari fikrlari asosida takliflar ishlab chiqish.

Ushbu metodlar orqali tijorat banklarida monetar siyosat samaradorligini oshirish yo'nalishlari ilmiy-amaliy jihatdan o'rganildi.

NATIJALAR

Tijorat banklarining Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan monetar siyosatga moslashuvi va uning samaradorligini tahlil qilish natijalari quyidagi holatlarni ochib berdi. Birinchidan, O'zbekistonda 2022–2024-yillar davomida Markaziy bank inflyatsiyani jilovlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida foiz siyosatini qat'iylashtirgan bo'lsa-da, tijorat banklari o'z kredit va depozit siyosatini bu o'zgarishlarga to'liq moslashtira olmagan. Kredit bozorida foiz stavkalari yuqoriligi sababli kredit olish imkoniyatlari cheklanib, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari bank xizmatlaridan yetarlicha foydalana olmayapti. Bu holat banklarning kredit portfelining sekin o'sishiga va real sektorni moliyalashtirish hajmining past bo'lishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, kredit olish jarayonining byurokratik tartib-taomillari ham mijozlar uchun qiyinchilik tug'dirmoqda. Depozit bozorida esa banklar foiz stavkalarini bozordagi talab va taklif asosida belgilashga harakat qilmoqda, biroq ba'zi banklarda depozit mahsulotlarining cheklanganligi va marketing faoliyatining sustligi sababli omonatchilar bazasini kengaytirish qiyin kechmoqda. Hududiy tafovutlar va raqamli xizmatlarning rivojlanmagani bu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Likvidlik boshqaruvi borasida esa banklar Markaziy bank



ochiq bozor operatsiyalarida ishtirok etish orqali qisqa muddatli resurslar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lsa-da, uzoq muddatli likvidlikni ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa banklar faoliyatining barqarorligiga xavf tug'dirmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining monetar siyosatga to'liq moslashuvi va uning samaradorligini oshirish uchun kredit va depozit siyosatini qayta ko'rib chiqish, foiz siyosatini optimallashtirish va moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash zarur. Shuningdek, banklar o'z faoliyatida mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganishi va raqobatbardosh strategiyalar ishlab chiqishi lozim.

MUHOKAMA

Tijorat banklarining monetar siyosat vositalaridan samarali foydalanishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiyotda faol ishtirok etishning muhim omili hisoblanadi. So'nggi yillarda Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan monetar siyosat natijasida inflyatsiyani jilovlash, pul massasini tartibga solish va foiz stavkalarini boshqarish bo'yicha muayyan yutuqlarga erishildi. Biroq, ushbu siyosatning tijorat banklari faoliyatiga to'liq va ijobjiy ta'sirini kuchaytirish uchun bir qator dolzarb muammolarni hal etish zarur. Birinchidan, tijorat banklari kredit siyosatini bozor talabiga moslashtirishda sustlik qilmoqda. Foiz stavkalarining yuqoriligi va kredit olish shartlarining murakkabligi real sektor subyektlari, ayniqsa, kichik va o'rta biznes vakillarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini cheklamoqda. Banklar kredit siyosatini yumshatish, kredit liniyalarini kengaytirish va mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha faolroq harakat qilishi zarur. Ikkinchidan, depozit siyosatida raqobatbardosh mahsulotlar yetishmayapti. Ko'plab banklarda depozit turlari cheklangan, foiz stavkalari esa bozordagi real talab va taklifdan orqada qolmoqda. Aholini va tadbirkorlarni omonatlarga keng jalb etish uchun banklar depozit mahsulotlarini diversifikatsiya qilishi, ularni marketing va reklama orqali faol targ'ib qilishi kerak. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida omonatlarni masofaviy boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi. Uchinchidan, banklar likvidlik boshqaruvini kuchaytirishi, ochiq bozor operatsiyalarida faolroq ishtirok etishi, uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan ishlash strategiyasini ishlab chiqishi zarur. Bu esa banklarning barqarorligi va moliyaviy



xavflarga chidamlilagini oshiradi. To'rtinchidan, tijorat banklari moliyaviy xizmatlar sifati va mijozlar bilan ishlash uslublarini qayta ko'rib chiqishi, mijoz ehtiyojlarini chuqur tahlil qilishi va ularni qondirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqishi lozim. Buning uchun banklar mijozlarga qulay xizmat ko'rsatish standartlarini joriy etishi va zamonaviy raqamli texnologiyalarni faol qo'llashi kerak.

Ushbu muammolarni bartaraf etish va monetar siyosat samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- kredit foiz stavkalarini bosqichma-bosqich pasaytirish va kredit olish shartlarini soddalashtirish;
- depozit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va raqobatbardosh foiz siyosatini ishlab chiqish;
- ochiq bozor operatsiyalarida ishtirok etishni kengaytirish va likvidlik boshqaruvini kuchaytirish;
- raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va mijozlarga qulayliklar yaratish;
- moliyaviy savodxonlikni oshirish va mijozlar bilan samarali aloqalarni kuchaytirish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish banklarning monetar siyosatga moslashuvchanligini kuchaytirib, ularning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini oshiradi.

XULOSA

O'zbekiston tijorat banklarining monetar siyosat samaradorligini oshirish yo'nalishlarini o'rghanish asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi. Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, banklar faoliyatida bu siyosatning imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanish darajasi yetarli emasligi tahlillar davomida aniqlandi. Kredit siyosatida yuqori foiz stavkalari va murakkab kredit olish tartiblari kichik va o'rta biznesning bank moliyaviy xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondira olmayapti. Depozit siyosatida esa mahsulotlarning yetarlichcha diversifikatsiya qilinmagani va marketing faoliyatining sustligi banklarning resurs bazasini kengaytirishda to'siq bo'lib qolmoqda. Likvidlik boshqaruvida ochiq bozor



operatsiyalaridan yetarlicha foydalanilmayotgani banklarning qisqa va uzoq muddatli barqarorligiga xavf tug'dirmoqda.

Tijorat banklari o'z faoliyatini Markaziy bankning monetar siyosatiga moslashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim:

- kredit siyosatini yumshatish va mijozlarga qulay shartlar yaratish;
- depozit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirish;
- ochiq bozor operatsiyalarida faol ishtirok etish va likvidlik boshqaruvini kuchaytirish;
- raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va mijozlarga qulay xizmat ko'rsatish standartlarini joriy etish;
- moliyaviy savodxonlikni oshirish va mijozlar bilan samarali aloqalarni mustahkamlash.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali tijorat banklari nafaqat moliyaviy barqarorlikka erishadi, balki iqtisodiy o'sishni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi PF-101-sون Farmoni “O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”. – lex.uz. <https://lex.uz/docs/5974314> (10.05.2025-yil holatiga ko'ra).
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yilgi pul-kredit siyosati asoslari. – www.cbu.uz (10.05.2025-yil holatiga ko'ra).
3. Nurmuxamedov Sh.A. O'zbekistonda monetar siyosat va tijorat banklari faoliyatining strategik yo'nalishlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 230 b.
4. Ergashev D.S. Tijorat banklarida monetar siyosat samaradorligini oshirish masalalari. – Toshkent: Fan, 2023. – 194 b.
5. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – New York: Pearson Education, 2019. – 736 p.